

**Xorijiy mamlakat fuqoralarini xayot faoliyati xavfsizligiga
munosabatlari**

Relations of citizens of foreign countries to the safety of life activities

**Отношения граждан иностранных государств к безопасности
жизнедеятельности**

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Ismoiljon Raxmonov Alisher o'g'li

Pedagogika va nazaryasi tarixi kafedrasida tayanch doktoranti

E-mail: irakhmonov94@gmail.com

Annatsiya: Xorijiy mamlakatlarning fuqoralarini xayot faoliyati xavfsizligiga munosabatlari odatda ilmiy va amaliy ko'rsatkichlarga asoslanadi. Xorijiy mamlakatlar fuqorolari o'z mamlakatlari tomonidan amalga oshirilgan islohatlar, chiqarilayotgan qonunlar, siyosiy va iqtisodiy sharoitlar, kelib chiqib munosabatlari turlicha bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: Xayot faoliyati xavfsizligi muammolari, kriminal faoliyatlar, terrorizm.

Annotation: The attitude of citizens of foreign countries to the safety of life activities is usually based on scientific and practical indicators. Citizens of foreign countries may have different relations based on the reforms implemented by their own countries, laws issued, political and economic conditions.

Key words: life security problems, criminal activities, terrorism, drug addiction.

Аннотация: Отношение граждан зарубежных стран к безопасности жизнедеятельности обычно основывается на научно-практических показателях. Граждане зарубежных стран могут иметь разные отношения в зависимости от реформ, проводимых в их собственных странах, принятых законов, политических и экономических условий.

Ключевые слова: проблемы безопасности жизни, преступная

деятельность, терроризм, наркомания.

Kirish.

Hozirgi kunda xoriji mamlakatlar fuqorolari hayot faoliyati xavfsizligiga aloxida e'tibor berib kelmoqda. Buning asosiy sabablari insonlarni hayotiga turli xildagi xavflar kundan kunga ortib bormoqda. Insonlar hayot faoliyatida uchrab turadigan texnogen, tabiiy, va ekologik favqulodda vaziyatlarni oldingi yilarga solishtiradigan bo'lsak sezilari tarizda ko'payganini ko'rishimiz mumkin. Shu sababli xavfsizlik bo'yicha barcha mamlakatlar, davlat boshqaruvida islohatlar olib borishmoqda qolaversa o'zlari uchun qonunlar ishlab chiqish orqali fuqorolarini hayot faoliyati xavfsizligiga bo'lgan munosabatlarini ijobiy tamonga o'zgartirishga harkat qilishmoqda. Buning natijasida insonlarga yetadigan zararlarni kamaytirish, moddiy va ma'naviy zarar ko'lamini imkon qadar pasaytirishga erish intilishmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Xorijiy mamlakatlar fuqarolari va hayot faoliyati xavfsizligi o'rtasidagi munosabatlar murakkab va ko'p qirrali hisoblanadi. Inson va atrof-muhit uzluksiz o'zaro ta'sirda bo'lib, doimiy harakatdagi «Inson – atrof muhit» sistemasini tashkil etadi. Dunyoning evolyusion jarayonida bu sistemani tashkil etuvchilar uzluksiz o'zgarib bordi. Inson mukammallashdi, er sharining aholisi va uning oqimi o'sdi, jamiyatning ijtimoiy asosi o'zgardi. Tarixga bir nazar tashlaylik. Aristotel hayot faoliyati xavfsizligiga o'z fikrlari va qarashlari bilan ilm fanga juda katta hissa qo'shgan. Shuning uchun Aristotel o'z zamonasining buyuk faylasuflaridan hisoblanadi. U Aleksandr Makedonskiyning ustoz ham edi. Aristotel faylasuf Suqrot huzurida 20 yilga yaqin ta'lim oldi Aflotun vafot etgandan so'ng Aristotel uning ta'limotini rivojlantirdi. U amalda inson duch keladigan xavf-xatar bilan qiziqardi. Shunday xolatlarda doimo aql bilan ish yuritishni targ'ib qilgan. Hokimiyatning qanday shakli afzalroq va insonlar uchun manfaatli bo'lishi haqida ko'p o'ziga savollar berardi. Aristotel atrof muhitni kuzatgan va dalil to'plagan holda bu savollarga javob izlardi. U har bir hodisa o'zining mantiqiy izohiga ega deb bilardi va tadqiqotlar hamda kuzatishlardan hukm chiqaradigan olimlar

qatoriga kiradi.

Aristotel o'z maktabiga asos soladi u yerda o'zining oldiga o'quvchilarni xavfsiz bilim olishini taminlashni maqsad qilib qo'ydi. U har bir kishi yaxshi va foydali yashab o'tish imkoniyatini bilish yo'li bilan olamda o'z o'rnini egallashi mumkinligiga ishonirishga urinadi.

Adabiyotlarda Aristotel Hayot faoliyati xavfsizligi, Astronomiya, Fizika, Zooligiya, Notqlik san'ati, Biologiya, Mantiq, Siyosat, Boshqaruv, ilmlari bo'yicha to'rt yuzga yaqin asar yozgan. Aristotel asarlarini hozirgi kunga kelib butun jahondagi olimlar yillar mobaynida o'qib o'rganishmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunga butun dunyo bo'ylab eng dolzarab muammolardan biri insoni xavfsizligini ta'minlash hisoblandi.

O'zi hayot faoliyati nima? Hayot faoliyati xavfsizligichi?

Hayot faoliyati – bu insonning kunlik faoliyati, dam olishi va yashash tarzidir.

Inson hayoti jarayonida uni o'rab turgan borliq muhiti bilan uzluksiz aloqada bo'ladi va shu bilan birga har doim uni o'rab turgan muhitga bog'liq bo'lib kelgan va shunday qolaveradi. Inson shuning uchun ham o'zini o'rab turgan atrof-muhit hisobiga oziq-ovqat, havo, suv, dam olish uchun zarur moddiy narsalar va boshqalarga bo'lgan ehtiyojini qanoatlantiradi.

Hayot faoliyati xavfsizligi insonlarga tahdid soladigan xavflar, ularning kelib chiqish qonuniyatlari va ulardan ximoyalanish usullari o'rganiladigan sohasi hisoblanadi. Turli falokatlar, halokatlar va ofatlardan insonlar hayot faoliyatini saqlash moddiy zarar yetkazishni olidni olish bartaf etishda to'g'ri harakatlanish va to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantirishga yo'naltirilgan soha hisoblandi.

Atrof-muhit – insonni o'rab turgan muhit bo'lib, insonning hayot faoliyatiga, uning sog'ligi va nasliga to'g'ridan to'g'ri, birdan urinma yoki masofadan ta'sir etishga qobiliyatli omillarning (jismoniy, ximiyaviy, biologik, informasion, ijtimoiy) shartli yig'indisidir

TAHLILLAR VA NATIJALAR.

Hayot faoliyati xavfsizligi, jamiyatning umumiy xavfsizlik hissiyatini ta'minlash va insonlarning turmush tarzlarini, iqtisodiy faoliyatlarini, ijtimoiy o'zaro munosabatlarni, ijtimoiy tashkilotlarni va davlat tuzumlarini kengaytirishga qaratilgan tadbirlardan iboratdir.

Kriminal faoliyatlar esa hayot faoliyati xavfsizligini og'ir qo'zg'atuvchi muammolardan biri sifatida ko'rinishi mumkin. Bu kriminal faoliyatlar har qanday jamiyatda ko'plab shakllarda paydo bo'lishi mumkin, shu jumladan, qasos olish, hirs va o'z-o'zini himoya qilish uchun o'zgartirish, hujum, to'qnashish, korrupsiya, narcomaniya, terorizm va boshqalar.

Hayot faoliyati xavfsizligida kriminal faoliyatlar bilan bog'liq o'rganish uchun ko'p turdagi ilmiy, sotsiologik va huquqiy adabiyotlar mavjud.

Hayot faoliyati xavfsizligida terorizm, butun dunyo xavfsizlik muammolaridan biri sifatida ko'riladi.

Terorizm - ijtimoiy xavfsizlikni og'ir zarba berish, katta talofatlar, ko'p sonli insonlarni xalok bo'lishi, jamiyat boshqaruvini izdan chiqarish, shu kabi faoliyatni ifodalovchi harakatlardir. Terorist faoliyatlar odatda aholi, siyosatchilar, xorijiy va kichik moliyachilar, diniy va etnik guruhlar yoki davlat organlari qarshi chiqish maqsadida amalga oshiriladi.

XULOSALAR.

Faoliyat xavfsizligi qadim zamonlardan to hozirgi kunimizga qadar insoniyatni ilmiy va amaliy qiziqishlarining eng muhim bir tomonidir. Insonni turli xavf-xatarlardan muhofaza qilish muammosi yer yuzida uzoq ajdodlarimiz paydo bo'lishlari bilan bir vaqtda yuzaga kelgan. Bu muammo hozirgi kunga qadar ham insoniyat oldida keskin muammo bo'lib turibdi va kundan kunga xavfsizlik masalasi yanada ko'proq e'tiborni talab etmoqda. Agar bashariyatning ilk davrlarida insonga asosan tabiiy xususiyatli xavflar tahdid solgan bo'lsa, keyinchalik vaqt o'tishi bilan inson o'z qo'llari bilan yangi-yangi xavf manbalarini yarata boshladi. Oqibatda inson hayotiy faoliyati xavfsizligini ta'minlash ustuvor

vazifalardan biri bo'lib qoldi. Xorijiy mamlakatlarni ayrim joylari xavfsiz deb hisoblangan xatti-harakatlar boshqa joyda xavfli bo'lishi mumkin. Bu tartibsizlikka olib kelishi va xavfsizlik muammolarini keltirib chiqarishi mumkin. Yangi muhitda odamlar xavfli yovvoyi tabiat, yo'l harakati qoidalari yoki mahalliy qurilish qoidalari kabi potentsial xavflardan xabardor bo'lmasligi mumkin. Bu baxtsiz hodisalar xavfini oshirishi mumkin. Yangi muhitda bo'lish mumkin bo'lgan potentsial xavf-xatarlar bilan odamlarni tezroq ogohlantirishi, bu esa xavfsizlikni anglash hissini oshiradi. Ko'p odamlar moslashuvchan va yangi xavfsizlik amaliyotlarini nisbatan tez o'rganishlari bu ularni munosabatlari hisoblandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR. REFERENCES

1. Anastasova, L.P., Izhevskiy, P.V., Ivanova, N.V. Hayot xavfsizligi asoslari [Matn]: boshlang'ich maktabning 1-2-sinf o'quvchilari uchun "Atrofimizdagi dunyo" kursi bo'yicha darslik L.P. Anastasova, P.V. Izhevskiy, N.V. Ivanova. -M.: Ma'rifat, 2002.
2. Anastasova, L.P., Izhevskiy, P.V., Ivanova, N.V. Hayot xavfsizligi asoslari [Matn]: boshlang'ich maktabning 1-2-sinf o'quvchilari uchun "Atrofimizdagi dunyo" kursi bo'yicha darslik L.P. Anastasova, P.V. Izhevskiy, N.V. Ivanova. -M.: Ma'rifat, 2002.
3. Belov, SV. "Hayot xavfsizligi bo'yicha asosiy tushunchalar, atamalar va ta'riflar" mavzusidagi "Mutaxassislikka kirish" fanidan taxminiy ma'ruza [Matn] / SV. Belov Hayot xavfsizligi. -2002 yil. -3-son
4. Berseneva, T., Melnikova, T., Osokin, A. "Hayot xavfsizligi asoslari" kursini o'qitishda innovatsion texnologiyalar
5. Bondin, V.I., Lysenko A.V. Hayot xavfsizligi [Matn] V.I. Bondin, A.V. Lisenko. - Rostov-na-Donu: Feniks, 2003